

## SHOYIM BO‘TAYEVNING O‘ZBEK ADABIYOTIDA TUTGAN O‘RNI: ASARLARIDAGI O‘ZIGA XOSLIK

*Barnoxon Yakubova  
Abu Rayhon Beruniy nomidagi  
Urganch davlat universiteti  
doktoranti*

**Annotatsiya.** Biz ushbu maqolada Shoyim Bo‘tayevning adabiyot olamiga kirib kelishi, adibning hayoti va ijodi kimlar tomonidan o‘rganilgani va o‘rganilayotgani, asarlaridagi o‘ziga xos jihatlarni tahlil qildik va mazmun-mohiyatini misollar orqali ochib berishga harakat qildik.

**Аннотация.** В данной статье мы проанализировали вхождение Шойима Ботаева в мир литературы, которым изучались и изучаются жизнь и творчество писателя, уникальные стороны его произведений и постарались на примерах раскрыть их суть.

**Annotation.** In this article, we have analyzed Shoyim Botayev's entry into the world of literature, by whom the writer's life and work have been studied and are being studied, and the unique aspects of his works, and we have tried to reveal their essence through examples.

**Kalit so‘z:** o‘zbek adabiyoti, adabiyot, roman, adib, badiiy asar, badiiy obraz, qahramon kechinmasi.

**Ключевые слова:** Узбекская литература, литература, роман, писатель, художественное произведение, художественный образ, опыт героя.

**Key words:** Uzbek literature, literature, novel, writer, artistic work, artistic image, hero's experience.

So‘z boshi o‘rnida ta’kidlash lozimki, milliy mustaqillikka erishish davri yutuqlarimiz bilan birga o‘zbek adabiyoti, xususan, o‘zbek nasrida sezilarli darajada o‘zgarishlar, siljishlar ko‘zga tashlandi. Chunki prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, “Adabiyot - so‘z san’ati azaldan xalq qalbining ifodachisi haqiqat vaadolat jarchisi bo‘lib keladi. Xususan, mustaqillik yillarida yurtimizda ma’naviyatimizning g‘oyat muhim va uzviy qismi bo‘lgan adabiyotni rivojlantirish, shoir va yozuvchilarimizning mehnatini qadrlash va munosib rag‘batlantirish. borasida ko‘plab savobli ishlar amalga oshirildi”<sup>55</sup>.

Shuningdek, betakror uslub yo‘lidan borayotgan yozuvchilar asarlarini tahlil va talqin qilish adabiyotimiz, adabiyotshunosligimiz ufqlarida yangi-yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Erkin A’zamov, Asad Dilmurod, Xurshid Do‘stmuhammad, Nazar Eshonqul, Shoyim Bo‘tayev va Normurod Norqobilov kabi adiblarimizning ijodi bunga yaqqol misol bo‘la oladi, desak yanglishmagan bo‘lamiz. Adabiy tanqidchilikda ularning

<sup>55</sup> [www.kitobxon.com](http://www.kitobxon.com) kutubxonasi

asarlari xususida turli xil ijobjiy fikrlar bildirilmoqda, anjumanlarda bahs-munozaralarga sabab bo‘lmoqda.

Haqiqatan yuqorida nomlari zikr etilgan ijodkorlar orasidan Shoyim Bo‘tayev asarlarini tahlili tadqiq etish bugungi adabiyotshunoslikning asosiy masalalaridan. Shu kungacha Shoyim Bo‘tayev ijodi, umuman olganda, o‘zbek adabiyotshunosligida roman va roman sujeti, badiiy tafakkur va kompozitsion butunlik borasida qator ishlar amalga oshirildi. M.Qo‘shtonov, O.Sharafiddinov, S.Mamajonov, U.Normatov, N.Karimov B.Nazarov, A.Rahimov, H.Umurov, Q.Yo‘ldoshev, Y.Solijonov, D.Quronov, B.Karimov singari olimlar masalaning ayrim qirralarini qisman o‘rganishgan<sup>56</sup>.

Shoyim Bo‘tayev o‘zining ajoyib uslubiga, badiiyatiga, xarakter va obrazlariga, betakror tiliga ega bo‘lgan yozuvchi ekanligini bugungi kunda uning kitobxonlari, muxlislari tan olishadi. Shuningdek, bugungi kun o‘zbek adabiy tanqidchilari adib asarlari to‘g‘risida ko‘plab ijobjiy fikrlarni bildirishgan bo‘lsa, ko‘plab ijodiy davralarda bahs-munozaralarga sabab bo‘lmoqda. Bu - bekorga emas albatta. Uning ijodi milliy nasrchipimizning eng yaxshi an’analarini jahon nasrchipi yutuqlari bilan mushtarak tarzda ifoda etishda namoyon bo‘lmoqda. Uning mehnati yuksak qadrlangan va qadrini yo‘qotmay kelmoqda. Shu sabab ham yozuvchi «Do‘stlik» ordeni bilan taqdirlangan.

Darhaqiqat, Shoyim Bo‘tayev iste’dodli adiblardan biri bo‘lib, 1959-yil 20-iyunda Tojikistonning O‘ratepa tumaniga qarashli Maydoncha qishlog‘ida tug‘ilgan. 1976-yili o‘rtta mifikni, 1982-yili esa Xo‘jand Davlat pedagogika institutining tarix-filologiya fakultetini tugatgan.

Uning mehnat faoliyati «Guliston» jurnalidan boshlangan bo‘lib, keyinchalik hozirgi «Tong yulduzi» gazetasida bo‘lim mudiri, keyinchalik esa «Cho‘lpon» nashriyotida muharrir bo‘lib ishladi<sup>57</sup>.

Bundan tashqari, Shoyim Bo‘tayev O‘zbekiston radiosining «Adabiyot va radioteatr» Bosh muharririyatining Bosh muharriri, «O‘zbektelefilm» studiyasi Bosh muharriri lavozimlarida ham samarali faoliyat olib borib, o‘zbek milliy madaniyati, adabiyoti va san’ati rivojlanishiga munosib ulush qo‘shdi.

Shu yillarda u talay badiiy va hujjatli filmlarning, radiopostanovkalarning adabiy ssenariylarini yozdi. Hozirda Shoyim Bo‘tayev “Cho‘lpon” nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosh muharrir o‘rinbosari bo‘lib ishlamoqda.

Uning adabiyotga kirib kelishiga to‘xtaladigan bo‘lsak, Sh.Bo‘tayev adabiyotimizning qutlug‘ dargohiga 80-yillarning o‘rtalaridan kirib kelgan. Dastlab,

<sup>56</sup>Пардаева З. Ҳозирги ўзбек романчилигининг тараққиёт тамойиллари. Филол. Фан. д-ри. дисс. автореф. –Т., 2003; Дониярова Ш. Истиқлол даври ўзбек романларида миллий рух ва қаҳрамон муаммоси. Филол. Фан. дри. дисс. ...автореф. –Т., 2016; Якубов И. Мустакиллик даври ўзбек романлари поэтикаси. Филол. фанлари д-ри. дисс. ...автореф. –Т., 2018; Шофиев О. Эркин Аъзам насли бадиияти (киноя ва образ). Филиология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссер. автореф. – Самарқанд, 2019; Djurakulova E. Shoyim Bo‘tayev romanlarida sujet va kompozitsion yaxlitlik. Filologiya fanlari d-ri.diss(PhD)....avtoref. – S.,2023

<sup>57</sup> [uz.wikipedia.org](https://uz.wikipedia.org)

talabalik davri hayotini ifodalovchi hikoyalar yozgan. Uning “Sirli yulduzlar” nomli ilk qissasi 1984-yilda “Sharq yulduzi” jurnalida nashr qilingan. Xuddi shu yili uning yana “Dunyoning sarhisobi bor” nomli qissalar to‘plami chop etilgan.

1988-yilga kelib adibning “Endi bari boshqacha” nomli hikoyalar to‘plami “Cho‘lpon” nashriyotida bosilib chiqadi. 1995-yilda esa Shoyim Bo‘tayevning «Shamol o‘yini» nomli qissa va hikoyalar majmuasi “Yozuvchi” nashriyotida chop etiladi, bir yildan so‘ng “Qo‘rg‘onning oyi” romani “IPAK Sharq” nashriyotida chop etildi.

Keyingi yillarda adibning “Kunbotardagi bog”, “Hayot”, “Ko‘chada qolgan ovoz” kabi qissa va hikoyalar to‘plamlari nashr etildi. Uning ilk romani “Qo‘rg‘onlangan oy” va “Yettinchi tong” romanlari bo‘lgan bo‘lsa, boshqa yozuvchi va adiblar haqidayam esselar yozib tugatgan. Masalan Shukur Xolmirzayev haqida “Shukur, ayt-chi bu hayot nima?”, Odil Yoqubov haqida “Odil Yoqubov fenomeni” kabi esselari biln kitobxonlar orasida yaxshigina tanilgan. Bundan tashqari, I.V.Savitskiy haqidagi “Orfey iltijosi xaloskori” esesi “Eng ulug‘, eng aziz” Respublika tanlovida g‘olib bo‘lgan.

Yozuvchining bir qator asarlari rus, ingliz, nemis va tojik tillariga tarjima qilingan.

Sh. Bo‘tayevning ijodi milliy nasrchiligidan eng yaxshi an’analarni jahon nasrchiligi yutuqlari bilan omuxta tarzda ifoda etishda namoyon bo‘lmoqda. Xuddi shu jihatdan uning “Shox” va “Qo‘rg‘onlangan oy” romanlari e’tiborga loyiqdir. Garchi roman qishloq kishilar hayoti, orzu-intilishlari haqida hikoya qilsa-da, aslida xalqimiz ma’naviyatiga xos milliy ildizlar, manbalar va hamisha yashovchan samarali an’analarni ham ko‘z-ko‘z qiladi.

Ayniqsa, qishloq kishilariga xos fe’l-atvor, samimiy va beg‘ubor tuyg‘ular nihoyatda go‘zal va shirali tilda, oddiy, aniq va ravon tasvirlanadi. Shular asarga joziba bag‘ishlaydi.

Adib aksariyat asarlarida tog‘ etaklari qiyaliklaridagi qishloqlar tasvirini shunqangi ko‘rsatib beradi-ki, kitobxon buloqlardan chiqayotgan suvni ko‘rayotganday, dovdaraxtlar ostida xordiq chiqarayotganday, qishloq ko‘chalariga xos betakrorlikni va kitobxonni olis bolalik chog‘lariga chorlab qoluvchi hislarni taqdim etadi. Shoyim Bo‘tayevning o‘nlab hikoyalari “Kun botardagi bog”, “Shamol o‘yini”, “Eski arava”, “Muyulishdagi uy”, “Sho‘rodan qolgan odamlar” kabi qissalari, “Qo‘rg‘onlangan oy”, “Shox” va “Utashan. Yettinchi tong” romanlari o‘z kitobxonlariga yetib borgan. Adibning kichik yoki katta hajmli asarlarining barchasida ham ko‘p betakror obrazlar, tabiat tasvirlari, xalqning yashash tarzi, urf-odatlari bilan birgalikda o‘zbeklarga, turkiy xalqlarga xos milliy ruh, milliy his-tuyg‘ular, milliy so‘zlashuv shevalarining yorqin uchkunlari yaqqol o‘z aksini topgan, desak xato bo‘lmas.

Yozuvchi tabiat va jamiyatning bir bo‘lagi inson ekanligi, u davr talabidan sira chetga chiqolmasligi, nafs ketidan soyadek ergashgan Murtazo kabilar alal oqibatda fojialar girdobiga tushib qolishi va shu yo‘lda intiqom topishini mantiqiy asoslaydi. Taqdirga ko‘nikish, hayot bilan o‘ynashmaslik, darvoqe, hayot va yashashning oltin qoidalaridan chetga chiqishlik ruhiy-ma’naviy inqirozlarga sabab bo‘ladi, degan xulosaga keladi yozuvchi.

Shuni ta'kidlash joizki, jahon adabiyotidagi yetakchi tamoyillar o'zbek romanchiligiga ham sezilarli ta'sir etganligini, bu o'rinda Sh.Bo'tayev ijodi ham bu an'analardan oziqlanganligini kuzatish mumkin. Adib asarlari qahramonlari insonni anglash, uning murakkab xarakter qirralarini namoyon etish uchun harakat qiladi. Romanlaridagi obrazlar olami qiyofasidan, ularning ruhiy-ma'naviy tushkun kayfiyatdaligi, nigohidagi o'kinch, iztirob, bosib o'tgan kuniga achinish, ertangi kuniga loqaydlik hissi bilan qarash kabi xislatlar yetakchilik qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI**

1. Mirziyoyev Sh. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. //Xalq so'zi gazetasi. – Toshkent, 2017-yil. 4-avgust.
2. Абдураҳмон Жомий. Баҳористон. – Т. 1979. -, Б..75. З Давлатшоҳ Самақандий. Шоирлар бўстони (“Тазкираи шуаро”дан Б.Аҳмедов таржимаси). –Т.: Адабиёт ва санъат, 1981, -Б.190. 27. Краткая литературная энциклопедия. Том 8. – М. Советская энциклопедия, 1975. – С.339.
3. Шарафиддинова М.О. Особенности повествовательной структуры узбекского романа XX века в контексте мировой литературы. Автореф. дис. док.фил.наук. –Т., ТАИ, 2010
4. Пардаева З. Ҳозирги ўзбек романчилигининг тараққиёт тамойиллари. Филол. Фан. д-ри. дисс. автореф. –Т., 2003
5. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi